

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

№ 1, 2018

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro, 2018

D.Davronova, F. Namezov. O'zbekiston yoshlari baxtu – iqboli va buyuk belajagini yaratgan inson.....	7
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	
M. Mahmudov. Ta'limni didaktik loyihalashning yangi qisralari.....	10
Z. Azimova. Talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....	14
B. Kozlova. Lichnoeté преподавателя высшей школы: проблема самореализации.....	18
Ю. Павлова. Современные тенденции в исследовании социальной адаптации личности студента.....	25
H. Shataghina. Образовательное пространство юга Узбекистана второй половины XIX – начала XX веков.....	29
H. Muylena. Metodika razrabotki uzochnenniyx uchebnyx nesel v programmakh obrazovatelnyx disciplin v sisteme nepreryvnoego obrazovaniya.....	34
N. Xalilova. Talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etishning reflektiv metod va usullari.....	37
G. Izbulayeva. XII-XIII asrlarda ta'lim tizimi.....	41
R.Nematova. Maktabgacha tibbiya yoshidagi bolalar sensor imadamiyatini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish.....	45
Z. Allardonov. Oliy harbiy ta'lim muassasalarasi harbiy tizmatchilarining kashiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati.....	49
A.Ismamova. O'smiedlardagi deviant xulq muammolarining ijtimoiy-psixologik jihatlari va ularning oldini olish yo'llari.....	53
F.Muxtarov. Vrach kasbyi tafsakkurini rivojlantirish usullari.....	58
R.Achillova, S.Qodirova. Understanding educational psychology.....	63
D.Tesheva. Shaxs kamolotida o'qituvchi-murabbbyuning o'mi.....	66
F. Shadlyev. Psixodiagnostika – psixologik xizmatning mazumiy yo'nalishlaridan biri.....	69
Sh. Farmonova. Loyihaviy ta'lim vositasida bo'libak o'qivuchilarining kommunikativ madaniyatini rivojlantirish didaktik tizimatto rafsatida.....	74
Ю. Борзов. Педагогические условия формирования готовности воспитателей к работе с детьми в условиях специальных групп дошкольных образовательных учреждений.....	80
M. Tilayeva. O'qivchilarni tichnai va kasbga tayyorlaganda o'quv maslabu'ktorlarning imkoniyatlari.....	88
D. Mirzayeva. Mustaqil ishlash – bilim olish va talabalarning faoliyigini ta'minlash usuli.....	93
BO'LIBAK	
S. Avezov, M.Sharipova. Qoshiqlarning lingvoopsekt tabiat va tahsilai xususida.....	99
F. Safarov. Boshlang'ich sinf o'qivchilariida lug' aidan foydalanish ko'nik matini shakllantirish.....	103
G. Sayfullayev, I. Allanova, A.Sayfullayeva. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berishda kuzatish metodidan foydalanish.....	110
R.Jumayev, S.Mahmudova. Ahmad Donishning pedagogik qaradchlari va hozirgi zamон.....	114
N.Adizova. Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning metodik ahamiyati.....	117
N.Safarova. O'yinchoqlarning bolalar yoshiba, jinsiga va o'yin mazmuniga ko'za turganishi.....	120
Z. Umurov. O'quv-biluv muammolar.....	124
R. Isrollova. O'qish darslarida rivoyat va pandnomalarni integratsiyalash asosida o'rganishning didaktik asoslar.....	130
M. Jumayeva. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish samaradorlik omili.....	134
F. Qosimov, M.Qosimova. Masala qisqa shartni uming modelidir.....	138
M.Hakimova. Boshlang'ich sinflarda ko'pburchak perimetri va figura yuzasi tushunchalarini o'rganish metodikasi.....	145
TA'BLIGHAT	
B.Rizayev. Oliy ta'limda "O'sha aslar mixi" fanini o'qishicha dolzab muammolari.....	149
M. Dzhonobizova. Актуальные вопросы семейного права в юридическом образовании.....	153
S. Gulyamova. Traditional education: yesterday, today and tomorrow.....	160
M.Nerova. Milliy-ma'naviy segizga tayyanish – demokratik jamiyat qurishining zasuriy shartti.....	165
N.Esanov, F.O'laiyeva. O'zbekiston tarixini o'qishida matematik bilimlarni shakllanurish uchun tarixiy faktlarning o'mi.....	168
SHAR'LAR	
G. Xudoynazarova, Sh. Zaripova, Sh. Xudoynazarova. "Metallar va metallmaslar. Muiakkab modda-	172



Sadeqat MAXMUDOVA
Buxoro davlat universiteti
boshlariqchilich va maktabgacha ta'lim
uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi

AHMAD DONISHNING PEDAGOGIK QARASHLARI VA HOZIRGI ZAMON

Maqolada Ahmad Donishning boy ilmiy merosi va undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalananish xususida fikr yuritilgan. Ahmad Donishning pedagogik qarashlarida bola tarbiyasining shakllanishiga ota solining beqtrosligi keltiriladi va bu an ana asrlar davomida O'zbekiston zamiroda shakllanayotgan ta'lim tarbiyasida o'z isodusini topmoqda. Shuningdek, mutasakkir qarashlarining o'ziga xosligi uning sodda sidda o'quvchilarda tushunarli bo'lganligidadir. Insan uari davomida tag'ini behuda sarflashi, kash-hunar egallamasligi og'lihatni daliflar usosida keltiradi.

Tayanch ishkunchalar: "Navodirul vaqoe", ma'naviy islahot, axlrog', idob, insonparvarlik, odatiylik xislati, un'ana va urf-odatlar, madaniyat, san'at, san, ta'lim.

В статье размышляется об испльзование богатого научного наследия Ахмада Динишса в процессе обучения и воспитания. В педагогических взглядах А.Динисса приводится о роли отца в формировании и воспитании ребенка, и этот обычай некими выражается в формировании воспитания в Узбекистане. А также, способность выражаться в том, что они доступны и понятны всем читателям.

Основные понятия: "Наводирул вакоэ", духовная реформа, мораль, гуманизм, человеческое качество, традиции и обычаи, культура, искусство, наука, образование.

In article is reflected on the use of rich scientific heritage of Ahmed Dunish in the process of education and upbringing. In the pedagogical views of A. Dunish was told the role about father in the forming and upbringing of child, and this custom is expressed by the forming of education in the land of Uzbekistan. Thereby, the peculiarity of the thinkers' minds is that they are accessible and understandable to all readers.

Поддерживаемые концепции: "Navodirul vaqoe". The spiritual reform, morality, humanism, human quality, traditions and customs, culture, art, science, an education.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy islahotlar bevosita jamiyat turmush latizi va dunyoqarashiga ham o'z ta'sinini o'tkazmoqda. Davlat mustaqilligi e'lon qilingan daslabki kusalardanog' ma'naviy islahot davlat siyosatining ustus o'z yo'nallishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Bu bosada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov: "Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lalimi islahotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tikkalanishi, boy latixiy metosimizning chauq o'r ganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, san va ta'lim rivoji, eng muhim, jamiyat tasakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqidir" [1]. – deb ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan mutasakkir Ahmad Donishning boy ilmiy merosi va undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalananish muhim shamiyat kash etadi. Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifoda etishda using "Navodirul vaqoe" (Nodir voqealar), "Tarjimai shvoli amironi Buxoro" (Buxoro amirlarining tarjimayi hollari), "Risola dar nazmi imaddun va tuovun" (Sivilizatsiya taribi va o'zaro yordani haqida) kabi o'nlab asarlari

c’iborgon molikdir. Bu asarlarda uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari quyidagi yo’nalishlarda o’z ifodasini topadi:

1. Davlat boshqaruv tizimi va hukmdorga oid.
2. Davlat amaldorlari va rahbar-kadrlami tanlash hamda joy-joyiga qo’yishga oid.
3. Harbiy qo’shimni tarbiya kelishish va yuksaltirishga oid.
4. Xalq farovonligi va jamiyat siyosiy ongini oshirishga oid.
- a) oilada ta’lim-tarbiya masalalarini;
- b) ta’lim tizimini isloh qilish;
- d) huquqiy sohani isloh qilish.

Biz radqiq etishga harakat qilgan mavzu “Xalq farovonligi va jamiyat siyosiy ongini oshirishga oid” ijtimoiy-siyosiy qarashlaridir. Ahmad Donish shoh asarlaridan bini hisoblangan “Navodin va qoc” (“Nodir voqealar”) asariga “Farzandlarga vasiyat. Kasb hunarning foydalari haqida” deb nomlanigan maxsus bob kiritigan. Muzkur bob mutafakkirming elliq yillik hayoti tajribasi xulosasi hisoblanadi va o’z-o’zidan avonlashadaki, mutafakkir ta’lim-tarbiya xususida ham nazariy va amaliy boy ilmiy meros qoldirgan.

Otdi umrim oh kim, g’aslat bilan,
O’masim uning sening mendek bo’lib.
O’zyalarning ko’rmishidan ibrat ol,
Boshqalarga qolmagil ibrai bo’lib.

Biz mutafakkirmi yetuk olim va jamoat arhibi, ayni shu kezda Buxoro amirligi diplomatik missiya-sining nufuzli davlat xodimi sifatida bilsakda, mazkur to’likdan Ahmad Donish o’zining umrining yarmidan ko’pini yashab bo’lsa-da, halta ko’p bilim va hunarni egallashga ishora bildiryapti. Vaholanki, bu mutafakkirming kamtarona, odamliylik xislati edi. Biz avlodlar bundan yetatlichcha xulosa chiqarib, oz o’rgangan bilimimiz bilan cheklanmay, aksincha, mutafakkir aytganidek hamisha izlanishimiz, ta’lim va tarbiya olishimiz zarurdir.

Allomaning pedagogik qarashlarda bola tarbiyasining shakllanishiga ota rolining beqiyosligi keltiriladi va bu an ansi asrlar davomida O’zbekiston zaminida shakllanayotgan ta’lim-tarbiyada o’z ifodasini topmoqda. Shuningdek, mutafakkir qarashlarining o’ziga xosligi uning sodda tilda o’quvchilarda tushunarli bo’lganligidadir. Inson unri davomida vaqtini behuda sarflashi, kasb-hunar egallamasligi oqibatini keltiradi. Mashhaqqatsiz rohat, mehnatsiz ne’mat bo’lmas. “Topgan-tejaganlari, boli-chaq, yor-do’silar bu yerda qolib, o’zi qanday tug’ilgan bo’lsa shu holda, yalang’och dunyodan o’tadi” [2, 325]. – deb yozadi Ahmad Donish. Tarixda boylikka hirs qo’ygan “Namud. Fir’avnlarining halok bo’lganlari. Qorinu Shaddatning yer yutib, jahon xalqlarining la’natlariga qolganlarim”, ya’ni hukmdorlarning ayanchli taqqidlarini misol sifatida keltiradi.

Mutafakkir shunday bir ilm va hunar o’rganish kerakki, u faqat millat va Vatanga xizmat qilishini uqtirdi. “Har bir hunarmand o’z hunanni qilsa-yu, lekin bundan maqsadi xalqqa foyda yetkazish bo’lmasa, unday hunardan baraka topa olmaydi” [2, 326] – deb uqtiradi. Boshqa bir joyda ilm va hunarlar insoniyat uchun foydali bo’lib, shu bilan birga ilmning o’sishiga yo’ll ochadi. Biroq bulardan asl maqsad xalqqa foyda keltirishdan ibort bo’lishi lozimdir: buning orqasidan, albatta, non ham topiladi. Aks holda, har qanday ilm-hunar ham oxiri o’zi uchun zararli bo’lib chiqadi. Butun hunarlarining a’losi ilmdir. Hunar egallashdan oldin ta’lim-tarbiya olmog’i, shundan so’ng jamiyat foydasiga xizmat qiladigan hunar egallash lozimligini ta’kidlaydi. “Har bir musulmon odam eng avval o’ziga zarur bo’lgan ilmlarni o’qishi farzdit. Shundan so’ng tinkchilik uchun bishor kasb-hunar egallashi lozim. Ahmad Donishning ta’kidlashicha: “Hunar va san’atlar ichida eng yaxshisi aql va ruh gavharlariga jilo benh uni quvvatlashdir. Kishi aql tajribasini oshirsa, ruhini poklesa u, shubhlitasiz, ilm va hunarning qadr-qiyomatiga yetadi. Shuning uchun sof ruhlik, oqil odamlar boshqa odamlar u yoqda tursin hatto podshohlarga ham keragidan oriqcha bosh egmaydilar. Balki aqning ehtiyoji doimo ularga tushib turadi. Mana, ko’rmaysanmi, dunyoming muhim ishlari, ayniqsa, saltanat va davlat ishlari aqlli kishilarning yordamisiz bitmaydi. Qaysi saltanat – davlatning qoida va qonunlari aql tadbiriga moslashtinb qurilmagan bo’lsa, unday davlatdan hech vaqt yax shilik ko’ra olmaydilar...” [2, 125].

Mustaqillik sharofati bilan bugun ozod yurt farzandlari kasb-hunar kollejlariда mutafakkir Ahmad Donish orzu qilganidek, dastavval ilm olmoqda va o’zlari xohlagan kasb-hunar egasiga aylanmoqda. Mutafakkir qarashlari narkazida axloq va odob, insonparvarlik, boylikka hirs qo’ymaslik g’oyalarini

ustuvor hisoblanadi. Agar dunyo ottirich maqсадида илм о'қиб, eng yuqori darajaga yetib, shayxul-islam bo'lsangas ham, xudo oldida sizlardan go'laxda (hammonda о'т yoquvchi – R.J.) yotgan bir foniq yaxshiroqdir". Kasb-hunar tonlanganda ham uning qayinchiliklari bo'lishi mumkinligi va shu holatda ortiqcha qayg'urmasdan shukr va sabr qilishlikni, sinovli kunlarda bardoshlari, umidsiz bo'lmasdan doimo harakatda bo'lishi lozimligini aytadi. Mutasakkirning mazkur sifatlar bugungi globallashtuv jarayonida, ayniqsa, endigina kasb-korga ega bo'lgan yoshlar bayotning o'nqir-cho'nqishtiliga sababi qilib tarbiyalashda muhim shamiyat kasb etadi.

Ahmad Doish zamorasining kasb-hunarları haqidagi ham ma'lumot keltiradi. Ular ichida markaziy o'rinda mudarrislik, muallimlik kasbi turadi. Mutafakkir ayiganidek, "bundan ulug' kash yo'qduri" [2, 358]. Shunday bo'lsa-da, alloma zamorasining ta'lim tizimi va xodimlarining faoliyatini tangid qiladi. Savdogarlar va hunarmandlarning topgan davlatlari ko'p mehnat va masbaqqalar tufgaralardan keyin erishganlar. Buni qo'liga kirtilish uchun bozor va rostalarda yugurib yurish, safsalarda ko'p og'irliklarga sabi qilib, chidash lozimdir. Qanday kasb-hunarari qilmog'chi bo'lsangiz, uning tiachlik tomonini o'yash kerak. U, ayniqsa, tarix, salsafa, salakiyot, tibbiyot, riyoziyot, adabiyot, handasa (geometriya) ilmlarini chuquq o'rganishga harakat qiladi. Ahmad Doish asosnomiyo asoslatini o'rqaishga ko'p e'tibor berdi. O'zining aytilishiga qaraganda, astronomiyani Mirzo Abdulfauz muzajjindan o'rgangan [3]. Ulardan olingan saboq Ahmad Donishning kamolotiga yordam beradi.

Mutafakkir pedagogik qarashlarining yana bis ajralib turadigan jihatni bugungi zamondan bilan ham-nasas vazifalardan hiri til o'rganish masalasini o'staga tashblaydi. Ahmad Doish yashagan davr nuqtayi nazaridan qaraganda, arab tili va Yevropa tillarini o'rganishni taklif etadi. Qisqa muddat davomida Ahmad Doish Peterburgda bo'lgan bo'lsada, vaqtidan unumli soydalishiga alohida e'tibor berdi. Unga usfardosh bo'lgan Rossiya tashqi ishlar vaziri drogmani, sharqshunos Qozimbek bilan yana da qadzdonlashdi, har qanday vaziyatda imkon topib hoi kuni besh soatcha vaqt davomida rus tilini o'rganana boshladi. Shu tariqda u o's fikrini rus tilida mustaqil ifodalashda darajatiga erishsa olgan [4]. Buning natijasida Ahmad Doish amrie hukumatni nomidani rus sha'murlari bilan muzokaralar olib borganligini manbalarda keltiriladi [5]. Shu nuqtayi nazaridan va "Navodir ul vaqoe" asaridagi "Farzandlarga vasiyat" bobida arab [2,370] tilini o'rganishni, "Risola yo'nuxtasari az tarixi sultanati xonadoni mang'ilisi" (Risola yoxud mang'ilalar xonadoni sultanatining qisqacha tarixi) asarida esa ruslar va franzuzlar [6] bilan boshqa bir asarida esa ingлизлар [7] bilan bo'lib o'rganub subbatlarini keltiradi. Til o'rganish va til bilishning ko'p hollarda soydalij jihatlarini yoitishiga harakat qiladi va huni yaxshi madaniyat sohibi ekanligini usqlatuvchi ornil sifatida baholaydi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkech: Ma'naviyat, 2008. – В. 76-77.
2. Ahmad Doish. Navodirul-vaque – T.: Fan, 1964.
3. Nomidiy H. Ko'lna sharq darg'aları. – T.: Shaxiq, 1999. – В. 332.
4. Жади-Заде Р. Ахмад Дониш – писатель и просветитель. – Лушанбе: «Донишъ», 1976. – Б. 19.
5. Коценко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 году. С подробным маршрутом от Ташкента до Бухары. С. Петербург: Борисовского, 1871. – С. 72-73.
6. Ahmad Doish. Risola yoxud mang'ilalar xonadoni sultanatining qisqacha tarixi. (Tarjima, izohlar va kirish so'zi muallifi Q.Yo'ldoshev). – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2014. – В. 60.
7. Дониш Ахмад. Путешествие из Бухары в Петербург. 1960. – С. 68.